

Ajdodlar tajribasi yoshlar uchun imkoniyat

Yoshlarni ilm-ma'rifatli qilish, ularni ilmgan, yaratuvchanlikga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish va bu orqali ularni qiyinab kelayotgan muammolarni tizimli hal etish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida, muhtaram yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan oqilonan siyosatning yaqqol namunasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi globallashuv zamonida ta'limga, ishlab chiqarishga va boshqa sohalarga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va shu kabi sohalarga yoshlarni keng jalb qilish borasida bir qator amaliy uchrashuvlar hamda targ'ibot tadbirlari tashkil etib kelinmoqda.



Yaqinda institutimizda innovatsion rivojlanish vazirligi hodimlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda, institut hamda vazirlik o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha kelishib olingen edi. Ushbu kelishuv natijasi o'laroq, kuni kecha, innovatsion texnologiyalar, IT va raqamli iqtisodiyotga qiziquvchi bir guruh talaba, magistr, doktorant hamda o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligiga tashrif buyurdilar. Tashrif doirasida vazirlik xodimlari bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklar haqida tanishtirib o'tishdi.



Xususan vazirlikning "Iqtidorli yoshlar bilan ishslash boshqarmasi" boshlig'i Firdavs Nematzoda vazirlikda tashkil etiladigan, turli xil tanlovlardan, Start-Uplar shuningdek, vazirlikda faoliyat olib borayotgan turli xil to'garaklar haqida ma'lumot berib o'tdi. Uchrashuv juda qiziqarli, ko'tarinki ruhda hamda qizg'in savol-javob va muhokamalarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilari hamda tashkilotchilarning taklif va fikrlari asosida bunday amaliy tadbirlarni yanada ko'paytirish, bu esa o'z navbatida barcha uchun birdek foydali ekanligi shuningdek, institut hamda vazirlik o'rtasidagi bunday hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha kelishib olindi.

TIQXMMI matbuot xizmati